

O‘zbek tilida yordamchi so‘zlarni o‘qitishda foydalaniladigan didaktik o‘yinli darslarning turlari

Ismatov Abduqodir Isabayevich,

Usmonov Aslam Qarshiboyevich*

Annotatsiya: Maqolada yordamchi so‘zlarni o‘qitishda foydalaniladigan didaktik o‘yinli darslarning turlari haqida fikr yuritilgan va ba’zi didaktik o‘yinlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yinli darslar, yordamchi so‘zlar, bog‘lovchi, uslub.

Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi.

O‘zbek tilida yordamchi so‘zlarni o‘qitishda talabalarning bilim olish jarayoni o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtiriladi. Talabalarning bilim olish faoliyati, o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar *didaktik o‘yinli darslar* deb ataladi.

Inson hayotida o‘yin faoliyati quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- o‘yin har doim shaxsning ma'lum bir faoliyatga bo‘lgan qiziqishini orttiradi;
- o‘yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi kommunikativ-muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi;
- shaxsning o‘z iqtidori, qiziqishi bilimini va o‘zligini namoyon etishga imkon yaratadi;
- hayotda va o‘yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengishga mo‘ljalni to‘g‘ri olish ko‘nikmalari tarkib topadi.
- o‘yin jarayonida ijtimoiy me'yorlarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy xislat va fazilatlarni shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma‘naviy-madaniy qadriyatlarni o‘rganishga e‘tibor qaratiladi;

* (A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti o‘qituvchilari.

- o‘yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

O‘yin faoliyati o‘zining quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

- O‘yin ishtirokchilari rollarni, vazifalarni tanlashi natijasida erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya'ni talabalarning o‘z faoliyatini tahlil va nazorat qilishi, maqsadga muvofiq natijaga erishgan hollarda o‘z faoliyatidan ko‘ngli to‘lishi, o‘z bilimi va kuchiga ishonch vujudga keladi;
- Ijodiy muhit tarkib topadi. O‘yin ishtirokchilari muammolarni hal etishda tegishli ijodiy va mustaqil faoliyatga ega bo‘ladilar;
- O‘yin davomida musobaqa, raqobat, hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga keladi. Shu asnoda his-hayajonli vaziyat paydo bo‘ladi. His-hayajonga yo‘g‘rilgan bilim, ko‘nikmalar inson xotirasida bir umr muhrlanib qoladi;
- O‘yin davomida belgilangan qonun-qoidalariga amal qilinadi. O‘yin ishtirokchilarida ijtimoiy me‘yorlarga mos ongli intizom vujudga kelishiga zamin tayyorlaydi;
- O‘yin mazmuni, borishi, mantiqiy ketma-ketligi, vaqt balansi va talabalarning muammoli vaziyatlarni zudlik bilan hal etish, mo‘ljalni to‘g‘ri olishga o‘rgatadi.

Didaktik o‘yinli darslarning muvaffaqiyati, avvalo, talabalarning mazkur o‘yinlarga puxta va qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishlariga, o‘qituvchining mazkur faoliyatni tashkil etish va mohirlik bilan boshqarishiga bog‘liq.

Didaktik o‘yinli darslarni talabalarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga ko‘ra sujetli-rolli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar o‘yini, konferensiyalar, o‘yin mashqlarga ajratish mumkin.

O‘yinlar vositasida talabalarga yangi bilimlar berish, ko‘nikma hosil qilish, kichik guruhlar a‘zolarining ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish mumkin. O‘yinlarni darsning kirish yoki yakunlovchi qismida o‘tkazish mumkin. O‘yinlarni maqsadiga ko‘ra 7 turga ajratish mumkin. [1.7]

1. Guruh bo‘lib ishlash uchun sog‘lom muhit tashkil etishga qaratilgan o‘yinlar:

- guruh a'zolarining o'zaro tanishishlariga yordam beradi;
- guruh bo'lib ishlash ishtiyoqini tug'diradi;
- guruh a'zolarining o'zini erkin his etishlarini ta'minlaydi, charchoqni tarqatadi.

2. Umumiy qiziqishlarni aniqlashga yo'naltirilgan o'yinlar:

- guruh a'zolarining ichki munosabatlarini tezda tiklashga yordam beradi (umumiy qiziqishlar, orzularni aniqlash orqali);
- guruhga yangi qo'shilgan a'zolarining (o'quvchilarning) yangi sharoitga moslashishlariga yordam beradi.

3. Guruhning birligini qo'llab-quvvatlovchi o'yinlar:

- o'zaro munosabat me'yorlarini o'rnatishga yordam beradi;
- guruhning birligini, jipsligini mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'ladi.

4. O'zaro bog'lovchi o'yinlar:

- bir mavzudan ikkinchi mavzuga yengillik bilan, tabiiy o'tishni ta'minlaydi;
- turli tushunchalarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi;
- yangi mavzuni o'rganishni yakunlash bosqichini faollashtiradi.

5. Rag'batlantiruvchi o'yinlar:

- guruh bo'lib ishlashga rag'batlantiradi;
- murakkab mavzularni muhokama qilishga yordam beradi;
- dars davomida "nafasni rostlab", ishni davom ettirishga yordam beradi.

6. Ijodkorlikni rag'batlantiruvchi o'yinlar:

- dunyoga boshqacha ko'z bilan qarash, ta'limda innovatsion metodlarni qo'llashga yordam beradi;
- o'yin qatnashchilari o'zlarining yangi qirralarini kashf etadilar, yangilikni qabul qilish ko'nikmasini hosil qiladilar.

7. Yakunlovchi o'yinlar:

- katta mavzularni o'rganishni yakunlash, egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi;
- ta'limning innovatsion metodlarini baholash va unga munosabat bildirishga o'rgatadi.

Ta'lim jarayonida qo'llangan har bir o'yin yakunida o'qituvchining sharhiga vaqt ajratiladi. Bunda u yoki bu o'yin guruh a'zolari tomonidan qanday qabul qilingani, guruhda qanday g'oyalar tug'dirganini sharhlashga e'tibor beriladi.

O'qituvchi avval talabalarni individual, so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va o'tkazishi ular muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng, ommaviy o'yinlarga tayyorgarlik ko'rishi lozim. Chunki talabalar didaktik o'yinli darslarda faol ishtirok etishlari uchun kerakli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, shuningdek, sinf jamoasi o'rtasida o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Psixololarning ta'kidlashicha, o'yinli faoliyatlarning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ihtiyojlariga tayanadi. O'yinli texnologiyalardan fodalanishning asosini talabalarining faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlarning tadqiqotiga ko'ra birgalikdagi faoliyatning asosiy bir turi hisoblanadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.[3.216]

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol harakterga "ijod maydoni"ga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobal shaklida namoyon bo'ladi. O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar. Tadqiqotchilar nazariy aspektda o'yinga faoliyat, jarayon va o'qilish metodi sifatida qaraydilar. O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish. Natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi. O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin harakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi. Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K.. Selevko ta'biricha) quyidagilarni qamrab oladi: o'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular

didaklik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qoʻllanadi. Oʻyindan tushunchalar, mavzu va xatto oʻquv predmeti boʻlimini oʻzlashtirishda oʻqitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi. Oʻyinning didaklik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va koʻnikmalarni qoʻllash, umumtaʼlim malaka va koʻnikmalarni rivojlantirish, mehnat koʻnikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan boʻladi. Oʻyinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondoshuvlar, nuqtai nazarlar, maʼnaviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan boʻladi. Faoliyatni rivojlantiruvchi oʻyinlar diqqat, xotira, tafakkur, qiyoslash malakasi, oʻxshashini topish, faraz, hayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, oʻquv rivojlantirishga qaratilgan. Ijtimoiylashuv oʻyinlari qadriyatlariga jalb qilinish, ehtirolarni nazorat qilish, oʻrgatish, psixoterapiyani nazarda tutadi.

“Soʻz zanjiri” didaktik oʻyini

Darsda “Soʻz zanjiri” oʻyinini oʻynash. Talabalar birma-bir yozuv taxtasiga chiqib, "soʻz zanjiri" ni tuzadilar. Bir daqiqa ichidan qancha soʻz yozadi, uzun zanjir tuzgan gʻolib boʻladi. Oʻyin mushoira tarzida davom etadi. “Soʻz zanjiri” oʻyini darsda qoʻllashda maʼlum bir vazifa qoʻyiladi. Masalan: birinchi chiqqan juftlik koʻmakchilar zanjiri, ikkinchi chiqqan juftlik bogʻlovchilar zanjirini, uchinchi chiqqan juftlik yuklamalar zanjirini hosil qiladilar.

2-bosqich. “Soʻz zanjiri” oʻyini murakablashtirish maqsadida savolni boshqasiga almashtirish mumkin. Masalan: guruhlar faqat sof yordamchi soʻzlar zanjirini tuzadilar yoki faqat vazifadosh soʻzlar zanjirini tuzadilar.

1-guruh:

Bilan + koʻra + sari + sayin + kabi + uzra + yangligʻ + qadar + dovur

2- guruh:

Va + hamda + ammo + lekin + biroq + balki + holbuki + vaholanki

3- guruh:

Axir+ hatto+ nahot+tim+qoq+ liq+ lim+ gʻirt+gʻarq+shilta + ham...

Shu tariqa bir nafas to‘xtamay davom etiladi. Kim ko‘p so‘z topgan bo‘lsa, g‘olib, lekin bironta so‘z qaytarib yozilmaydi. Bu o‘yin orqali nafaqat yordamchi so‘zlarni urganadilar balki, daska bilan ishlash malakasi oshadi.

O‘quvchilar shu tartibda o‘yinda ishtirok etib, berilgan so‘zlarning “juftini” topadilar. Bu o‘yin talabalarning o‘rganilayotgan mavzuni yaxshiroq yodda saqlab qolishlariga yordam beradi, ularning ijodiy tafakkurini o‘stiradi. Guruhlar topshiriqni o‘z o‘rinlarida yoki yozuv taxtasida bajarishlari mumkin. O‘qituvchi guruhlarning javoblarini ko‘rib chiqadi va o‘z munosabatini bildiradi.

“Bingo” o‘yini

Dars mashg‘ulotidan oldin o‘qituvchi bingo-jadval tuzadi. Bingo-jadvali 25 ta katakdan iborat bo‘ladi va shu kataklarga eng muhim ma’lumotlar va topshiriqlar joylashtiriladi. Dars vaqtida bingo-jadval har bir talabaga tarqatiladi. Uni to‘ldirish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. Qaysi talaba barcha kataklarga topshiriqlarni birinchi bo‘lib bajarsa, “bingo” deb xitob qiladi. G‘olib talabaga rag‘batlantiruvchi sovg‘a beriladi (kitob, jurnal kabi). Biz hozir laboratoriya mashg‘lotimizda “Bingo” o‘yinini o‘tkazamiz. Buning uchun quyidagi bingo-jadvalni talabalarga tarqatamiz:

	B	I	N	G	O
	Mustqil so‘z turkumlari	Yordamchi so‘z turkumlari	Ko‘makchilar	Bog‘lovchilar	Yuklamalar
So‘z turkumlariga ta’rif bering	Bunday so‘zlar mustaqil so‘roq qabul qilib gapda turli gap bo‘lagi vazifasida kela oladi. Fe‘l, ot, sifat, son, ravish kabilar.	Gap bo‘lagi va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gapni o‘zaro bog‘laydi yoki ularga qandaydir qo‘shimcha ma’no yuklaydi. U lug‘aviy ma’noga ega emas, so‘roqqa javob bo‘lmaydi va yakka holda gap bo‘lagi bo‘lib kelmaydi.	ot, olmosh, sifatdosh va harakat nomidan keyin kelib, uni hokim so‘zga bog‘lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so‘z.	Gap bo‘laklari va sodda gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘z turkumi.	Yuklama– ayrim so‘z yoki gapga so‘roq, ta’kid, ayirish-chegaralash, gumon, o‘xshatish, inkor kabi ma’nolarni yuklovchi so‘z va qo‘shimchalar.

Leksik ma'noga eʻcalik	Shaxs, predmet, o`rin, harakat va holat, predmet belgisini, miqdor, harakat belgisini ifodalaydi.	Lug`aviy ma'noga ega emas	Lug`aviy ma'noga ega emas	Lug`aviy ma'noga ega emas	Lug`aviy ma'noga ega emas
Grammatik ma'noga shkloʻa eʻcalik	son, kichraytirish-erkalash, daraja, tartib, dona, chama, jamlovchi, taqsim shakli, nisbat, harakat tarzi, zamon, mayl, harakat tarzi.	Lug`aviy shakli yo`q	Lug`aviy shakli yo`q	Lug`aviy shakli yo`q	Lug`aviy shakli yo`q
Yasalish belgisi	Yasaladi. Son va olmosh yasalmaydi.	yasalmaydi	yasalmaydi	yasalmaydi	yasalmaydi
Sintaktik vazifasi	gap bo`lagi bo`lib keladi	So`roq qabul qilmaydigan, mustaqil gap bo`lagi bo`lib kela olmaydigan	So`zni so`zga bog`lovchi, gap bo`lagi vazifasida kela olmaydigan so`zlar	So`zni so`zga teng, gapni gapga teng va tobe bog`laydi. Gap bo`lagi vazifasida kela olmaydi	Gap bo`lagi vazifasida kela olmaydi

“Juftini toping” o‘yin

Bu o‘yin ijodkorlikka undovchi o‘yinlardan bo‘lib, undan yangi mavzuni mustahkamlashda, takrorlash va mustahkamlash darslarida foydalanish mumkin. “Morfologiya” bo‘limining “Bog‘lovchi” mavzusi o‘rganiladi. Bog‘lovchi kelib chiqishiga ko‘ra sof va vazifadosh kabi turlarga bo‘linadi. “Bog‘lovchilar” mavzusi o‘rganilganda, shu o‘yindan foydalanish yaxshi samara beradi. O‘yin quyidagi tartibda o‘tkaziladi. Talabalar ikki guruhga bo‘linadi. Har bir guruh talabalariga bitta bog‘lovchi aytiladi va talaba shu so‘z faqat bog‘lovchi bo‘lsa bog‘lovchiga, agar bu so‘z bog‘lovchidan boshqa so‘z ham bo‘lib kelsa shu

soʻzning “**Juftini**” yaʼni boshqa maʼnoda kelayotgan shaklini topish kerak shu soʻzladi. Guruh aʼzolari topshiriqni quyidagi tartibda bajaradilar.

№	soʻz	bogʻlovchi	“jufti”	Guruhlar
1.	ham	Kitob <u>ham</u> daftar oldim.	Men <u>ham</u> kitob oʻqiyman. <i>yuklama</i>	“Yogʻdu” guruhi
2.	na... na	<u>Na</u> kitob, <u>na</u> daftar oldi.	Na daftar, na qalam olmadi. <i>yuklama</i>	“Tafakkur” guruhi
3.	goʻyo	Qor yogʻdi, <u>goʻyo</u> don yogʻdi.	goʻyo suv quyganday jim-jit. <i>yuklama</i>	“Yogʻdu” guruhi
4.	ham... ham	<u>Ham</u> kitob oʻqidim, <u>ham</u> vazifalarni bajardim.	Kitob ham daftar ham oldim. <i>yuklama</i>	“Tafakkur” guruhi
5.	balki	Men oʻqimayman, <u>balki</u> yodlab olaman	Balki, u kelgandir. <i>modal soʻz</i>	“Yogʻdu” guruhi
6.	-u, -yu	qoʻy-u qoʻzi, gul-u lola.	Men bor-u, bilib qoldi-yu. <i>yuklama</i>	“Tafakkur” guruhi

Faydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Poʻlatov, S.Odilov. Ona tili taʼlimida didaktik oʻyinlar texnologiyasi. Qoʻqon: TDPU - 2014. 7-b.
2. Ziyodova T.U. Hozirgi oʻzbek adabiy tilini oʻrganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish. T., 2002.
3. Ya. A. Kaminiskiy Buyuk didaktika asari. Toshkent: Sharq, -1996. 216-b.